



## SHAXS PSIXOLOGIYASI VA KASBIY SHAKLLANISH

---

*Dumarova Gulfira Kozimbekovna,  
Isroilova Shoxsanam Azizbek qizi  
Andijon davlat chet tillari instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsdagi kasbiy psixologik sifatlarni shakllantirish, ularni kasbga tayyorlash jarayonlardagi ahamiyati hamda o‘rin yoritib berilgan. Shaxs yo‘nalganligi doimo ijtimoiy belgilangan bo‘lib, tarbiya jarayonida shakllanishi, shaxs psixologiyasining tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещается значение и место формирования профессиональных психологических качеств человека, его подготовки к профессии. Направленность личности всегда социально детерминирована, даются сведения о формировании в процессе воспитания структуры психологии личности.

**Abstract:** This article highlights the importance and place of formation of professional psychological qualities in a person, their preparation for the profession. The orientation of the person is always socially determined, information about the formation in the process of education, the structure of the psychology of the person is given.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, individ, individuallik, shaxs borasidagi psixologik nazariyalar, shaxs tuzilishi, o‘zini anglash, o‘zini baholash, shaxsning psixologik himoyasi, shaxs shakllanishi.

**Ключевые слова:** личность, индивид, индивидуальность, психологические теории о личности, структура личности, самосознание, самооценка, психологическая защита личности, формирование личности.

**Key words:** person, individual, individuality, psychological theories about the person, personality structure, self-awareness, self-evaluation, psychological protection of the person, personality formation.

Zamonaviy sharoitda fanni o‘qitish talaba yoshlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg‘or yutuqlar, umuminsoniy g‘oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik - psixologik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy-texnik tafakkurni tarkib toptirish, yetakchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.



«Shaxs» tushunchasi keng va ko‘p qirralidir. Shaxsni u yoki bu yo‘nalishda bir qator fanlar: falsafa, tarix, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot va psixologiya o‘rganadi. Psixologiya fani boshqa fanlardan farqli o‘laroq, shaxsning ichki dunyosini, boshqacha qilib aytganda, uning ruhiy jarayonlarini, hissiy - irodaviy holatlarini, individual psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Psixologiya fanida shaxs muammosini o‘rganish bo‘yicha turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabi qarashlar, yondashuvlar kiradi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida odamlar bilan o‘zaro muloqotga kirishgandan so‘ng inson o‘zini atrofdagi muhitdan ajratadi, o‘zidagi jismoniy va ruhiy holatlar, harakatlar va jarayonlarning sub‘ekti sifatida his etadi, shaxsan o‘zi uchun «boshqalar» qarshisida turgan, shu bilan birga, ularga bevosita bog‘liq bo‘lgan «Men» sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsan «Men» mavjudligining sub‘ektiv kechinmasi, avvalambor, insonning hozirgi, o‘tgan zamon va kelajakda shaxsan o‘ziga nisbatan o‘zining o‘xshashligini tushunishi holatida ifodalanadi.


Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o‘zaro ta‘sirga ega bo‘lishidan iborat. Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismlarni ajratadilar. S.L. Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqatlarda; bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarda; yo‘nalganlikda namoyon bo‘ladigan individual-tipologik xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi. A.G. Kovalev yo‘nalganlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I. Enikeev temperament, yo‘nalganlik, layoqatlar va xarakterni sanab o‘tadi. Mashhur psixolog K.K. Aflotunov yo‘nalganlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologiktarkibni vabiologik asoslangantarkibni ajratib ko‘rsatadi [2].

Shunday bo‘lsada, shaxs tuzilishida tarkibiy qismlarni ajratishdagi tafovutlarga qaramay, mualliflar o‘z yondoshuvlarida etakchi tarkibiy qism sifatida **yo‘nalganlik** ni alohida ajratib ko‘rsatadilar. Bu tushuncha turlicha, masalan, «o‘sish sur‘ati tendensiyasi» (S.L. Rubinshteyn), «ma‘no kasb etuvchi motiv» (A.N. Leontev), «dominantlik munosabati» (V.N. Myasishev), «asosiy hayotiy yo‘nalganlik» (B.G. Ananev), «inson mohiyatli kuchlarini dinamik tarzda tashkil etish» (A.S. Prangishvili) sifatida talqin etiladi.

Bizlar nima uchun odam harakatlari faollashganining sababini aniqlashda ehtiyojlar mohiyatining tahlilini o‘tkazamiz, lekin bu faollikning oqibatlarini bilish uchun uning yo‘nalganligi nima bilan belgilanishini tahlil qilishimiz lozim. **Yo‘nalganlik** deb, shaxs faoliyatini yo‘naltiruvchi va xususiy vaziyatlardan 76 nisbatan mustaqil bo‘lgan barqaror motivlar yig‘indisiga aytiladi.



Shaxsning psixologik tuzilishini quyidagi ko‘rinishda tasavvur etish mumkin.



**1-rasm. Shaxsning psixologik tuzilishi**

Shaxs yo‘nalganligi doimo ijtimoiy belgilangan bo‘ladi va tarbiya jarayonida shakllanadi. Yo‘nalganlik – bu shaxsning xususiyatlariga aylangan va havas, istak, intilish, qiziqish, moyillik, ideal, dunyoqarash, e‘tiqodkabi shakllarda namoyon bo‘ladigan mayllar. Bu shakllarning asosida faoliyat motivlari yotadi.

Psixologiya tarixida shaxsning psixologik mohiyati haqidagi tasavvurlarga ko‘p marta o‘zgartirishlar kiritilgan. Avvalambor, shaxsni, aynan, psixologik tushuncha sifatida anglashning zaruriyati bilan bog‘liq nazariy qiyinchiliklarni bartaraf etishning eng ishonchli vositasi shaxsni psixologik voqelik kabi tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni sanab o‘tish hisoblanadi. Bu holatda shaxs inson psixikasining sifatlari, xossalari, qirralari, o‘ziga xos xususiyatlarining to‘plami sifatida maydonga keladi. Muammoga bunday yondoshish A.V. Petrovskiy tomonidan «kolleksiya to‘plash» deb nomlangan, bunda shaxs o‘zida temperament, xarakter, qiziqishlar, layoqatlarning qirralarini mujassamlashtirgan qandaydir kattalik, hajmga aylanadi.



### ADABIYOTLAR:

1. SH.M. Mirziyoev - Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent - O'zbekiston, 2017, 104 b.

2. SH.M. Mirziyoev - Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz|| Toshkent - O'zbekiston||, 2016, 56 b.

3. SH.M. Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston||, 2017, 488b.

4.P.I.Ivanov. Umumiy psixologiya.- O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati|| nashriyoti, darslik. Toshkent, 2008 y.- 480 b

5.F.R. Abdurahmonov, Z.E. Abdurahmonova. Kasb psixologiyasi. - Barkamol fayz mediya nashriyoti, darslik. Toshkent, - 2002. 200 b 6.V.Karimova. Psixologiya: O'quv qo'llanma-T. 2002.207b